

## TURKISTON O‘LKASINING ETNOGRAFIK TASVIRI

*Xolxujayeva Y.U.*

*SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali o‘qituvchisi*

**Tayanch so‘zlar:** Rossiya imperiyasi, Turkistono‘lkasi, rusmanbalari, etnoslar, aholiningetniktarkibi, o‘troq aholi, soni, tasniflar.

**Ключевые слова:** Российская империя, Туркестанская область, русские, этнос, этнический состав населения, оседлое население, численность, классификации.

**Key words:** Russian Empire, Turkestan region, Russians, ethnos, ethnic composition of the population, settled population, number, classifications.

### **Резюме:**

Mazkur maqolada Turkistonning etnografik tasviriga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. Turkistondagi aholi tarkibiga nisbatan fikrlarni bayon etilishi jarayonidan bir qancha tafsilotlar keltirib o‘tiladi. XIX - asr oxiri va XX - asr boshlarida o‘lka aholisining etnik mazarasi juda xilma-xil bo‘lib bordi. Umuman, mustamlakachilik siyosati asosida olib borilgan ko‘chirish, ruslashtirish siyosati, bu o‘zgarishlar Rossiya imperiyasi hududlaridan ko‘chirib keltirilgan xalqlarni joylashtirish hisobidan, mahalliy aholining sonining ko‘payib borishi, natijasida mintaq hududlarida aholining milliy tarkibi o‘zgarib bordi. Turkiston aholisining diniy tarkibi hamda xalqlar o‘rtasidagi munosabatlarida sezilarli darajada o‘zgarishlar bo‘ldi.

### **Резюме:**

В данной статье мы кратко коснемся этнографического образа Туркестана. Приводятся некоторые подробности процесса выражения мнений о составе населения в Туркестане. В конце XIX - начале XX века этнический состав населения страны стал весьма разнообразным. В целом переселенческая, русификационная политика проводилась на основе колониальной политики, эти изменения были вызваны переселением народов, переселенных с территорий Российской империи, увеличением численности местного населения, национального изменилась структура населения региона. Произошли существенные изменения в религиозном составе населения Туркестана и отношениях между народами.

### **Summary:**

In this article, we will briefly touch on the ethnographic image of Turkestan. Several details of the process of expressing opinions about the composition of the population in Turkestan are given. At the end of the 19th century and the beginning of the 20th century, the ethnic composition of the population of the country became very diverse. In general, the resettlement, Russification policy carried out on the basis of the colonial policy, these changes were caused by the resettlement of the peoples transferred from the territories of the Russian Empire, the increase in the number of the local population, and the national structure of the population in the region changed. There have been significant changes in the religious composition of Turkestan population and relations between people.



Kirish. Turkiston o'lkasi o'zining ko'p ming yillik tarixi davomida yuzlab etnoslar va etnik birliklarni bag'riga sig'dirgan O'zbekiston tarixini ham aholining etnik tarkibi va soni kabi asosiy aspektlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Zero, ma'lum hudud aholisining etnik tarkibi va soni to'g'risida chop etilgan yozma manbalar, arxiv materiallari, ilmiy tadqiqotlar va tarixiy adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarning tarixiy-manbaviy tahlili tarix fanining bosh masalalaridan biri hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. 1867-yil Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilgandan so'ng o'lkada barcha jabhalarda o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Shu jumladan, o'lka aholisini soni va tarkibini o'rganish bo'lgan e'tibor yanada kuchaya bordi. Xususan bu borada bir qancha statistik ma'lumotlar to'plangan. Shu jihatdan, rasmiy statistik ma'lumotlar olungunga qadar Turkiston o'lkasida bo'lgan rus va xorijiy mualliflarning ishlarida ham aholi tarkibi va soni to'g'risida taxminiy bo'lgan ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin. 1820-1821 yillarda Buxoro amirligida bo'lgan E.K.Meyendorf qoldirgan ma'lumotlatga ko'ra, amirlik aholisi tojiklar, o'zbeklar, yahudiylar, tatarlar, afg'onlar, qalmiqlar, hindlar, qo'shni davlatlardan kelgan savdogarlar va ziyoratchilar, fors va rusalardan iborat bo'lgan[1]. 1841-1842 yillarda Zarafshon vodiysining katta qismini o'rgangan va Samarqand shahrida ham bo'lgan sharqshunos N.V.Xanikovning qaydlarida amirlik aholisi asosan tojiklar, arablar jami 28 ta urug'ga mansub bo'lgan o'zbeklar, forslar (eroniylar), yahudiylar, lo'lilar (mazanglar), qirg'iz va qoraqalpoqlardan iborat bo'lganligi ko'rsatiladi[2]. 1863-yilda Buxoro amirligida bo'lgan mojar sharqshunos olimi A.Vamberining kundaliklarida amirlik aholisi o'zbeklar, tojiklar, qirg'izlar, arablar, marvliklar, eronliklar, hindlar va yahudiylardan iborat bo'lganligi qayd etilgan[3].

Yuqorida keltirilgan yozma manbalarda keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, E.K.Meyendorf yahudiylar, N.Xanikov tojiklar va o'zbeklar, A.Vamberi ko'proq qirg'izlarning etnik xususiyatlariga e'tibor qaratganligiga guvoh bo'lamiz. Shuningdek, N.Xanikov A.Vamberining qaydlarida amirlik hududida vaqtinchalik bo'lib turgan etnik birliklar (afg'onlar, ruslar, tatarlar, qalmiqlar va boshqalar) aholining umumiy tarkibiga kiritilmagan. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarning manbaviy ahamiyati katta bo'lsada, ularning hech qanday statistik ma'lumotlarga asoslanmaganligi va aksariyat hollarda og'zaki so'rov natijalari ekanligini ham hisobga olishimiz lozim.

V.P.Nalivkin ham o'zning Turkistondagi mahalliy aholiga nisbatan fikrlarini bayon etishi jarayonidan bir qancha tafsilotlarni keltirib o'tadi. Sartlar nomi ostida Sirdaryo, Samarqand va Farg'ona viloyatlarining shahar va qishloqlarida

yashayotgan mahalliy musulmon o'troq aholi nazarda tutiladi. Ular yashash joylariga qarab maishiy munosabatlarda, ayniqsa, keskin farqli jihatlariga ega bo'salarda, etnografik munosabatlarda ilgari ko'chmanchi turmush tarzi kechirgan, lekin allaqachon bu erda o'troqlashgan turklarga (yoki o'zbeklarga) va qadim davrlardan bu erning o'troq aholisi hisoblangan, fors tilining o'ziga xos shevalarida so'zlashuvchi, u yoki bu darajada kelgindi turk (shuningdek turk-mo'g'ullar deb ham nomlanadi) bosqinchilarning tili ta'siriga tushgan tojiklarga bo'linadi. Tojiklarning xususiyatli jihatlaridan biri, ularning tog'li hududlarda yashashidir. Tojik qishloqlarining katta qismi tog'li va tog' oldi mintaqalarida joylashgan. Umuman olganda o'lkadagi tojiklarning eng katta qismi Samarqand viloyatida yashaydi. Farg'ona viloyatida ular Namangan, Qo'qon va Marg'ilon uездlarining tog' oldi qismlarida istiqomat qiladilar. Unchalik katta bulmagan tojik qishloqlari Sirdaryo viloyatining faqat Toshkent va Chimkent uездlarida mavjud[4].

Bugungi kunda ko'plab tadqiqotchilar tamonidan ham Samarqand viloyatining aholisi o'rganish bo'yicha ko'plab ilmiy ishlar olib borilgan. Bu borada quyidagilarni ham keltirib o'tishimiz joizdir. Zarafshon vohasida joylashgan Samarqand bekligi aholisi, asosan, dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq va chorvachilik bilan shug'ullangan. Samarqand aholisining asosini o'zbeklar, tojiklar tashkil etgan. Shuningdek, bu erda boshqa millat vakillari-qozoq, qirg'iz, turkman, eroni, uyg'ur, lo'li, hindlar va boshqalar ham yashagan. Buxoro amirligi tarkibidagi Samarqand viloyatida qancha aholi yashaganligi to'g'risida manbalarda aniq ma'lumotlar yuq. XIX asrning yigirmanchi yillarida rus elchiligi tarkibida kelgan E.K.Meyendorf bergan ma'lumotlarga ko'ra birgina Samarqand shahrida 50 mingga yaqin aholi yashagan. prof. P.P.Ivanov va boshqa tadqiqotchilarning asarlarida esa 30 mingga yaqin istiqomat qilgan deb aytiladi. 1868 yilda Zarafshon okrugining faqat Samarqand bo'limida (tog'li tumanlardan tashqari) aholi 179.522 kishini tashkil etgan. Bizningcha, boshqa milliy guruhlar bilan hisobga olganda, XIX asr birinchi yarmida Samarqand viloyatida 150 mingdan ziyod aholi istiqomat qilgan bo'lishi mumkin[5].

Markaziy Osiyoning zamonaviy etnik jamoalari Rossiya mintaqaga kirib kelguniga qadar mavjud bo'lganligi to'g'risidagi masala nisbatan muammoli hisoblanadi. Rossiyada XVII asrning oxirida ham mavjud aloqalarga qaramasdan, Markaziy Osiyoning aholisi, uning tillari va urf-odatlarini to'g'risidagi tasavvurlar anchayin taxminiy bo'lgan. Vaziyat XVIII asrga kelganda o'zgara boshladi. Bir tamondan, Rossiya jamiyatida fanning qaror topish jarayonlari boshlandi, ikkinchi tamondan, Markaziy Osiyoga bo'lgan qiziqish nisbatan



maqsadli mohiyat kasb eta boshladi. Aholi to'g'risidagi ma'lumotlarni tartibga keltirish dastlab, Rossiya savdo va diplomatik munosabatlarda kimlar bilan ish olib borayotganligini tushunish oqibatida mintaqa imperiyaning bir qismiga aylangach, aholi sonini aniqlash va hisobga olish, shuningdek, ma'muriy va mahalliy boshqaruvni shakllantirish uchun zarur edi.

XVIII asr o'rtalaridayoq Markaziy Osiyo xalqlarini tasniflashga, ularning tillari, urf-odatlar va joylashgan hududlarini bayon etishga bir nechta harakatlar bo'lgan edi. Bunday tasniflardan biri, masalan, Orenburg komissiyasining a'zosi P.I.Richkov tomonidan taqdim etilgan bo'lib, u quyidagi ko'rinishga ega bo'lgan: 1) truxmenlar; 2) xivaliklar; 3) orolliklar (orol o'zbeklari); 4) qoraqalpoqlar; 5) qirg'iz-qaysaqlar (yoki qirgizlar); 6) turkistonliklar; 7) toshkentliklar; 8) jung'orlar (yoki qalmaq xalqlari). Ko'rinib turibdiki, bu ro'yxatda Rossiyaga bevosita qo'shni bo'lgan "xalqlar" "qabilalar"(ya'ni, zamonaviy atamashunoslikda etnik guruhlar sifatida) sifatida, qolgan barchalari esa mamalakatlar yoki mulklar sifatida ta'riflangan. Ta'rifning bunday usuli nafaqat Markaziy Osiyo aholisi to'g'risidagi bilimlarning etarli darajada taqchil xususiyatga ega ekanligi, ta'rif "birliqi" to'g'risidagi tushunchaning ham mavjud emasligini o'zida aks etgan[6].

Rossiya imperiyasi tamonidan 1897-yilda amalga oshirilgan aholini umumiy ro'yxatga olish bo'yicha qilingan ishlarda Turkiston aholisi to'g'risida juda ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. Barcha viloyatlar, uездalar, shaharlar kesimida aholi ro'yxatga olingan.

Sirdaryo viloyatining aholisi etnik munosabatlarda o'zining ahamiyatli darajadagi xilma-xil xususiyati bilan ajralib turadi. Bu erda aholining katta qismini qirg'izlar tashkil etadi (64.40 %). Ular viloyatning dasht qismi hisoblangan Perovsk, Kazalinsk, qisman Chimkent uездlari va Amudaryo bo'limi aholisining katta qismini tashkil etadi. Ruslar asosan shaharlarda, shuningdek, Avliyoota, CHimkent va Toshkent uездlarining qishloqlarida istiqomat qiladilar. Sartlar asosan Toshkentda va umuman olganda Toshkent uezdi hududidagi qishloqlarda istiqomat qiladilar. Tojiklar Toshkent uezdining tog'li hududlarida guruhlashganlar. Qoraqirg'izlar Avliyoota uezdining tog'li qismlarida yashaydilar. O'zbeklar va qoraqalpoqlar Amudaryo bo'limida erlashganlar. Yahudiylar, tatarlar va hindlar istisnosiz shaharlarda istiqomat qiladilar. Sirdaryo viloyati aholisining yarmidan ko'pini ko'chmanchilar tashkil etmoqda[7].

Qisqacha xulosa qilganda, uzoq davom etgan tarixiy jarayonlar davomida O'zbekiston aholisining xilma-xil etnik tarkibi shakllandi, natijada vujudga kelgan yirik elatlar XIX asr oxiri XX asr boshlarida millatlarni shakllantirish

yo‘liga o‘tdilar, shuningdek migratsiya asosida turli etnik guruhlar ham vujudga keldi.

#### Adabiyotlar:

1. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. Предисл. Н.А.Халфина. – М., Глав.ред. вос.лит. изд-во «Наука», 1975. С.95
2. Ханьков Н.В. Описание Бухарского ханства. – СПб., 1843. С.53-75
3. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. Описание поездки из Тегерана через Туркменскую степь по восточному берегу Каспийского моря в Хиву, Бухару и Самарканд, совершенной в 1863 году Арминием Вамбери, членом Венгерской Академии. С картою Средней Азии. Перевод с английского. СПб., 1865. СПб.,1865. С.168-169
4. В.П.Наливкина / Туземцы раньше и теперь. Ташкенть. Элек трич, типо-лит, ”Турк. Т-ва Початного дьла”. 1913 г. С 381-382.
5. Г.Б.Нормуродова /XIX аср охири ва XX аср бошларида Самарканд вилояти аҳолисининг ижтимоий стратификацияси . Тошкент “Янги нашр ” 2013. Б 31-32.
6. Авторский коллектив:/Центральная Азия в составе Российской империи. Санкт-Петербург, 191 187, Россия. Новое литературное обозрение 2008. С 260-262.
7. Первая всеобщая перепись населения Российской империи 1897 года./Изд.Центр.Стат.комитетом М-ва вн. дел; Под ред. Н.А.Тройницкого.-[СПб.]1897-1905.